



## SUD QARORLARINI YUQORI INSTANSIYALARDA KO'RISHNING AHAMIYATI

Nazarov Zafar Safarboyevich

"NAZAROV ZAFAR SAFARBOYEVICH"

advokatlik byurosi advokati,

TDYU mustaqil izlanuvchisi

+998998411060

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18671795>

### ARTICLE INFO

Received: 31<sup>st</sup> January 2026

Accepted: 5<sup>th</sup> February 2026

Published: 16<sup>th</sup> February 2026

### KEYWORDS

*birinchi instansiya, apellyatsiya, kassatsiya, taftish, sud hukmi, sud ajrimi, hukmni bekor qilishm hukmni o'zgartirish.*

### ABSTRACT

*maqolada yuqori instansiya sudlarida birinchi instansiya sudlarining qarorlarini qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish ahamiyati yoritilgan bo'lib unda, hozirgi O'zbekistonda olib borilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlarning mazmuni tahlil qilib berilgan. Shuningdek, sud-tergov ishlarida kutilayotgan prognozlar hamda amaldagi diagnozlar keltirib o'tilgan.*

### KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" Strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etish, xususan, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish vazifasi belgilandi. Strategiyaning 14-maqsadida qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash, 17-maqsadida esa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish ko'rsatilgan".

Jinoyat-protsessual huquq fanida sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish jinoyat-protsessual faoliyatning bir shakli sifatida qabul qilinadi. U qonuniy kuchga kirgan va qonuniy kuchga kirmagan sud hukmlari va ajrimlarini qayta ko'rib chiqishning bir necha turlarini o'z ichiga oladi. Sudning apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarining vazifalari aniq shundan iboratki, ushbu bosqichlarning har birida ishni oldingi instansiyada ko'rgan sud hukmi va ajrimining qonuniyligi tekshiriladi.

Mustaqil O'zbekistonda jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish jarayoni izchil davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-sentabrdagi "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan nazorat instansiyasi sudi hukmlarining qonuniyligi, asosligi va adolatliligini tekshirish tartibi o'zgartirildi, apellyatsiya va kassatsiya sudlarining vakolatlari yangi belgilandi, yangi taftish instansiyasi joriy qilindi.

Mazkur qonunning yangi normalari nuqtayi nazaridan darslikda jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish institutining zamonaviy huquqiy omillari, sud qarorlarini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari, sudlarning yangidan paydo bo'lgan vakolatlari ko'rib chiqilgan, jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini apellyatsiya (kassatsiya) va taftish instansiya sudlarida qayta ko'rib chiqishdagi roli, ushbu sudlarda qabul qilinayotgan protsessual qarorlarning turlari va mohiyati tahlil qilingan.

### TADQIQOTNING USULLARI.

Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy, tizimli, qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy, sotsiologik so'rov o'tkazish, statistik ma'lumotlar tahlili, qonunni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

#### **NATIJALAR.**

“Hukm va boshqa sud qarorlarining adolatligini tekshirish hozirgi vaqtda sud qarorlariga nisbatan sinov xarakteriga ega bo'lgan jinoiy ish yuritishning bir necha bosqichlaridan iborat turli protsessual harakatlar tizimini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Ushbu vazifa O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessidagi sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirishga qaratilgan jinoiy ish yuritish bosqichlarida hal qilinadi. Sud qarorlarini tekshirish institutining ahamiyati jinoiy ish yuritishning umumiy maqsadlaridan mantiqan kelib chiqadigan apellyatsiya, kassatsiya ishlarining maqsad va vazifalari bilan tasdiqlanadi”.

O'zR Jinoyat-protsessual kodeksining 455-moddasida, sud hukmiga qo'yilgan talablar bo'lib, unda hukm qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi lozim. Hukm qonunning barcha talablariga amal qilingan holda va qonun asosida chiqarilgan bo'lsa, qonuniy deb e'tirof etiladi. Hukm ishning haqiqiy holatlari unda kerakligicha to'la va yuz berganiga haqiqatdan aniqlangan bo'lsa, asosli deb e'tirof etiladi.

#### **MUHOKAMA.**

D.Suyunova ta'kidlab o'tganidek, “Hukm aybdorga nisbatan jazo yoki boshqa ta'sir chorasi u sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xavfilik darajasi va uning shaxsi e'tiborga olinib tayinlangan bo'lsa, aybsiz shaxs esa oqlangan va reabilitatsiya etilgan bo'lsa, adolatli deb e'tirof etiladi. Hukm chiqarishda qonunning ushbu talablardan chetga chiqish, jinoyat ishini yuqori instansiya sudida tekshirish natijasida uning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishiga olib keladi”<sup>1</sup>.

U. To'xtashevaning fikricha, “Yuqori instansiya sudlari jinoyat ishlarini shikoyat va protestlar asosida ko'rib chiqib, odil sudlovni amalga oshiradilar. Huquqni qo'llash amaliyoti hamda apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudlarida sud ishlarini yuritishni tartibga soluvchi jinoyat-protsessual qonun hujjatlari normalarining tahlili ushbu bosqichlar aslida quyi sudlarning sud faoliyati ustidan nazorat qilib xatolarni tezda tuzatish, odil sudlov sifatini yaxshilash vositasi bo'lib xizmat qiladi degan xulosaga kelishga imkon beradi”<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Jinoyat ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko'rish amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida”gi 2024-yil 25-mart kungi qaroriga ko'ra belgilanishicha, yuqori sudlarning sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish vakolatlari nazorat funksiyalariga ega, chunki ular jinoyat ishlarini shikoyat yoki protest asosida ko'rib chiqadilar. Shu bilan birga, apellyatsiya, kassatsiya instansiyalari sudlari jinoyat ishini shikoyat yoki protest bilan cheklanmasdan, jinoyat ishini to'liq hajmda tekshiradilar.

Har qanday sud qarori, shu jumladan, hukm, maxsus sud vakolatiga, sudya maqomiga ega bo'lsa ham, shaxsning fikri va xulosalarini anglatadi.

I.N. Sikunova bu haqda quyidagicha ilmiy qarashlarni ilgari surgan, “bir tomondan, jinoyat-protsessual tizimi institutsional darajada, insonning tabiati tufayli “u xatoga yo'l qo'yishi mumkin” degan xulosani istisno etmasligi kerak”, deb hisoblaydi<sup>3</sup>. Boshqa tomondan, A.A. Larinkovning fikri ham muhimligi bilan e'tibor qaratdi, “bunday fikr sud hokimiyatining

<sup>1</sup> Сууюнова Д. Ж.” Обеспечение защиты прав и интересов граждан при проверке законности, обоснованности, справедливости судебного приговора”, Хукукий тадқиқотлар журнали. Журнал правовых исследований, 2024/7, №7, стр. 109-116

<sup>2</sup> Тухташева У.А. Уголовно-процессуальные пути устранения судебных ошибок: монография. – Т.: Издательство ТГЮУ, 2020. – С. 19.

<sup>3</sup> Цыкунова И. Н. Проверка доказательств по уголовному делу в суде апелляционной инстанции. – 2020.

obro'si va unga asoslangan sud qarorlarini shubhasiz bajarish lozimligi haqidagi asosiy vazifani xavf ostiga qo'yimasligi kerak"<sup>4</sup>, deb biladi.

Sud qarorlariga shikoyat qilish huquqini nafaqat tomonlarning eng muhim protsessual huquqi, balki insonning asosiy huquqlaridan biri deb tan olinadi. Shuni nazarda tutish kerakki, prokuratura deyarli har doim jinoiy protsessda davlatning mansabdor vakili (davlat ayblovchisi) sifatida ishtirok etadi, shu jumladan, jabrlanuvchi huquqlarini himoya qilish hamda kasbiy majburiyatlar asosida ish olib boradi, ayblanayotgan shaxs va uning himoyachisi esa jinoiy javobgarlik yuzaga kelmasligi maqsadida o'zining shikoyat qilish huquqidan foydalanadi. Bu o'rinda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar" to'g'risidagi Xalqaro paktning (1966-yil) 5-qismining 14-moddasida ko'rsatilgan "har qanday jinoyat uchun aybdor deb topilgan va hukm qilingan shaxs, unga nisbatan chiqarilgan sud qarorlarini qonunga muvofiq yuqori sud instansiya tomonidan qayta ko'rib chiqish huquqiga ega" degan qoida ham belgilangan.

Taraflarning jinoyat ishini ikki instansiyada, ya'ni hukm qabul qilingandan so'ng, uni ikkinchi instansiya sudiga shikoyat qilish qoidasi joriy qilingan. Bu yerda birinchidan, taraflarning buzilishi yoki cheklanishi mumkin bo'lmagan huquqi haqida so'z yuritilmoqda, ikkinchidan, taraflar qonuniy kuchga kirmagan hukmni faqat bir marotaba ikkinchi instansiyasi sudiga (yuqori instansiya sudiga) shikoyat qilish huquqiga ega, uchinchidan, bunday holda jinoyat ishini qayta ko'rib chiqish huquqi nafaqat sud qarorini shikoyat qilish, balki takroran sud tergovini o'tkazish huquqini ham anglatadi.

Aynan oxirgi holat tufayli jinoyat protsessida apellyatsiya instansiyasi hech qachon to'liq va qisman shakliga bo'linmasligi kerak, chunki mahkum sud hukmidan so'ng yuzaga kelgan yangi dalillarga yoki yangi holatlarga asoslanib avval bo'lmagan vajlarini keltirish mumkin, bu esa uning fuqarolik va protsessual huquqi deb tan olish kerak.

Shu bilan birga, jinoyat ishini to'liq sud tergovini o'tkazgan holda ikkita instansiya (birinchi va apellyatsiya) sudlarida ko'rib chiqish huquqidan jinoyat ishini yuqori sud instansiyasida qayta ko'rib chiqish huquqidan ajratish kerak. Bu holatda jinoyat ishi ikki instansiyasidan o'tgandan keyin yuqori instansiya sudida ham ko'rib chiqishi mumkin, ammo cheklangan chegaralarda: tor doiradagi asoslar bo'yicha – odatda faqat huquq nuqtayi nazaridan, sud tergov o'tkazmasdan va ish bo'yicha holatlarni aniqlamasdan. Albatta, jinoyat-protsessual tizimi jinoyat protsessi ishtirokchilariga davlatimizning eng yuqori sudiga murojaat qilish huquqini yakuniy baholashni amalga oshiradigan sud piramidasining tepasiga ta'minlashi kerak. Lekin sud qarorini qayta ko'rib chiqish jarayoni bir-birini to'ldiruvchi, funksional jihatdan xilma-xil, soni jihatdan cheklangan instansiyalar bo'lib, ularning har biri taraflarning sud qarorini tanqid qilish protsessual huquqini aks ettiradi.

E.S. Shmelyovanning ilmiy ishlariga ko'ra, "sudlarning qonuniy kuchga kirmagan hamda qonuniy kuchga kirgan hukm, ajrimlarini qayta ko'rishning mohiyati ularda aniqlangan kamchiliklarni tuzatishdan iborat" deb keltiriladi<sup>5</sup>. Shuni aytish joizki, hukm va ajrimlarning qonuniyligi, asosliliigi va adolatliliгинi tekshirish instituti yuqori instansiya sudlari tomonidan sud nazoratini amalga oshirishning yorqin namunasidir.

Birinchidan, amalga oshiriladigan faoliyatning asosiy qismini, ya'ni bosh yo'nalishini aynan tekshirish tashkil qiladi.

Ikkinchidan, bu tekshirish taraflarning erkiga bog'liq, ya'ni shikoyat yoki protest berilmasa, bu faoliyatni boshlash imkoniyati yo'q.

<sup>4</sup> Ларинков А. А. Вопросы проверки доказательств на стадии судебного разбирательства: теоретические и практические аспекты //Криминалисть. – 2013. – №. 1 (12). – С. 31-36.

<sup>5</sup> Шмелёва Е. С., Шарковская Е. А. Особенности проверки доказательств в суде апелляционной инстанции //Известия Оренбургского государственного аграрного университета. – 2014. – №. 4 (48). – С. 254-256.

Sud hukmlarining, ajrimlarining, qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligi apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida tekshirilishi mumkin.

Ishni yuqori instansiya sudi tomonidan ko'rish:

1) apellyatsiya tartibida — ushbu Kodeksning 497<sup>2</sup>-moddasida ko'rsatilgan shaxslarning shikoyatlariga va protestlariga binoan;

2) kassatsiya tartibida — ushbu Kodeksning 499-moddasida ko'rsatilgan shaxslarning shikoyatlariga va protestlariga binoan;

3) taftish tartibida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan — ushbu Kodeksning 511 va 512-moddalarida ko'rsatilgan shaxslarning shikoyatlariga va protestlariga binoan amalga oshiriladi.

JPKning 497<sup>2</sup>, 499 va 511-moddalarida nazarda tutilgan protsess ishtirokchilari birinchi instansiya sudining hukmi va ajrimi ustidan belgilangan tartibda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berishga yoki protest bildirishga, shuningdek taftish tartibida shikoyat (iltimosnoma) berishga yoxud protest bildirishga haqlidir. Bunda ular o'z vajlarini tasdiqlash uchun qo'shimcha materiallarni taqdim etishi mumkin.

#### **XULOSA.**

Qayd qilingan vazifalarni bajarishi natijasiga ko'ra apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudlari qo'shimcha to'plangan dalillarga huquqiy baho bergan holda agar birinchi instansiya sudi tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyati bo'lsa, hukmga tegishli o'zgarishlarni kiritib, sud qarorini o'zgartiradi, misol uchun aybdorning jinoiy harakatlari yengillashtirish tomoniga qayta kvalifikatsiya qilish, tayinlangan jazoni kamaytirish yoki boshqa, yengilroq jazoga almashtirish shular jumlasidandir. Agar qo'shimcha amalga oshirilgan harakatlar natijasida birinchi instansiya sudi tomonidan xatolarni bartaraf etishning iloji bo'lmasa (og'irlashtiruvchi holatlarga o'tish, JPK 416-417-moddalarini qo'llash), mazkur hukm bekor bo'ladi. Misol uchun quyidagilarni ko'rib chiqamiz<sup>6</sup>.

*Sud hukmiga ko'ra, R. yonida ko'p miqdorda bo'lgan giyohvandlik vositasini qonunga xilof ravishda sotish bilan shug'ullanishda gumonlanib ushlanganida, yonidan 215,7 gr "geroin" giyohvandlik moddasi topilganlikda aybdor deb topilgan.*

*Prokuror o'rinbosari tomonidan keltirilgan apellyatsiya protestida R.ga nisbatan sud hukmini bekor qilish so'ralgan.*

*Apellyatsiya instansiyasi sudining sud muhokamasida xolislar U. va X.lar daliliy ashyo tariqasida olingan "geroin" giyohvandlik moddasini R. dan olinganligini ko'rishmaganligini, o'lchanmaganligini, bayonnoma tuzilmaganligini, paketda nima borligini ko'rishmaganligini, qandaydir hujjatlarga imzo qo'ydirishganligini ko'rsatishgan.*

*Bundan tashqari, ish bo'yicha so'roq qilingan guvohlar G. va S.larning giyohvandlik vositalarini R.dan olganligi to'g'risidagi ko'rsatmalar qarama-qarshi bo'lib, sotib olmoqchi bo'lgan shaxs S.ga nisbatan ham noqonuniy tergov harakatlari o'tkazilgan bo'lib, oqibatda unga nisbatan jinoyat ishi harakatdan tugatilgan.*

Jinoyat ishi bo'yicha lozim bo'lgan harakatlar amalga oshirilmagan, ish bir tomonlama olib borilgan, jumladan, ish holati to'la-to'kis va har tomonlama tekshirilmagan, to'plangan dalillarga xolisona baho berilmagan, narkologiya ekspertizasi o'tkazilmagan, dastlabki tergov jarayonida JPK talablari buzilishlarini bartaraf etishga qaratilgan choralar ko'rilmagan. Ushbu holatlar, ya'ni sud tergovining to'liq emasligi va bir yoqlamaligi hukmining bekor qilinishiga asos bo'ldi.

<sup>6</sup> Suyunova, D.J. Jinoyat protsessida sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligidini, adolatligini tekshirish [Mant]: darslik / Suyunova, D.J. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 142 b.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Сууюнова Д. Ж." Обеспечение защиты прав и интересов граждан при проверке законности, обоснованности, справедливости судебного приговора", Хуқуқий тадқиқотлар журнали. Журнал правовых исследований, 2024/7, №7, стр. 109-116

2.Suyunova, D.J. Jinoyat protsessida sud qarorlarining qonuniyligi, asosligini, adolatligini tekshirish [Mant]: darslik / Suyunova, D.J. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 142 b.

3.Тухташева У.А. Уголовно-процессуальные пути устранения судебных ошибок: монография. – Т.: Издательство ТГЮУ, 2020. – С. 19.

4.Шмелёва Е. С., Шарковская Е. А. Особенности проверки доказательств в суде апелляционной инстанции //Известия Оренбургского государственного аграрного университета. – 2014. – №. 4 (48). – С. 254-256.

5.Цыкунова И. Н. Проверка доказательств по уголовному делу в суде апелляционной инстанции. – 2020.

6.Белохортов И. И. Полномочия суда по собиранию, закреплению и проверке доказательств //Общество и право. – 2008. – №. 1 (19). – С. 184-188.

7.Ларинков А. А. Вопросы проверки доказательств на стадии судебного разбирательства: теоретические и практические аспекты //Криминалисть. – 2013. – №. 1 (12). – С. 31-36.

8.Рукавишникова А. А. Особенности обжалования и проверки в кассационном порядке судебных решений, вынесенных в порядке исполнения приговора //Вестник Самарского юридического института. – 2021. – №. 1 (42). – С. 74-83.

INNOVATIVE  
ACADEMY